UNIVERSAL JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES
ISSN 2992-8826
https://sr-journals.org/index.php/UJMANS

TABIIY OFATLARDA TIBBIY YORDAMNI TASHKIL ETISH BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH YO`LLARI

Parmanova Nigora Atabayevna
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti
Biologiya va ekologiya fakulteti Ekologiya kafedrasi katta o'qituvchisi
e-mail: parmonova_n@nuu.uz
Nazarova Nozigul Sherali qizi, Sulaymonova Manzura Doniyor qizi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti
Hayot faoliyati xavfsizligi ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabalari

Annotatsiya. O'zbekistonda tabiiy ofatlar (zilzila, sel, ko'chki, qurg'oqchilik) sonining ortishi, aholining o'sishi va iqlim o'zgarishi favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarga tibbiy yordamning tezkor tashkil etilishi va samarali boshqarilishini talab qilmoqda. Shu sababli, mazkur tizimni takomillashtirish nafaqat tibbiyot sohasi, balki aholi xavfsizligi va jamiyat barqarorligi uchun ham muhimdir. Maqolada tabiiy ofatlar vaqtida tibbiy yordam tizimining mavjud holati va uni rivojlantirish yo'nalishlari, jumladan, raqamli texnologiyalar (GIS, dronlar, telemeditsina)ni joriy etish, kadrlar tayyorlash tizimini yaxshilash, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, FVV va Sog'liqni saqlash vazirligi o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish hamda huquqiy asoslarni takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Tabiiy ofatlar, shoshilinch tibbiy yordam, favqulodda vaziyatlarni boshqarish, raqamli texnologiyalar, koordinatsiya, samaradorlik, iqlim o'zgarishiga chidamlilik.

Аннотация. Рост числа природных катастроф (землетрясения, сели, оползни, засухи) в Узбекистане, увеличение населения и изменение климата создают необходимость оперативной организации и эффективного управления медицинской помощью пострадавшим в чрезвычайных ситуациях. Поэтому совершенствование этой системы важно не только для медицинской сферы, но и для безопасности населения и стабильности общества. В статье анализируется современное состояние системы медицинской помощи при природных катастрофах и направления ее развития, включая внедрение цифровых технологий (ГИС, дроны, телемедицина), совершенствование системы подготовки кадров, укрепление материально-технической базы, усиление интеграции между МЧС и Минздравом, а также совершенствование правовой базы.

Ключевые слова: Стихийные бедствия, неотложная медицинская помощь, управление чрезвычайными ситуациями, цифровые технологии, координация, эффективность, устойчивость к изменению климата.

Annotation. The increase in the number of natural disasters (earthquakes, mudflows, landslides, droughts) in Uzbekistan, population growth and climate change create the need for prompt organization and effective management of medical care for victims in emergency situations. Therefore, improving this system is important not only for the medical field, but also for population safety and social stability. The article analyzes the current state of the medical care system during natural disasters and its development directions, including the introduction of digital technologies (GIS, drones, telemedicine), improvement of the personnel training system, strengthening of the material and technical base, enhancement of integration between the Ministry of Emergency Situations and the Ministry of Health, as well as improvement of the legal framework.

Key words: Natural disasters, emergency medical care, emergency management, digital technologies, coordination, efficiency, climate resilience, and climate change resilience.

UNIVERSAL JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES
ISSN 2992-8826
https://sr-journals.org/index.php/UJMANS

KIRISH (INTRODUCTION)

O‘zbekiston Respublikasida tabiiy ofatlar (zilzila, sel, ko‘chki, qurg‘oqchilik) vaqtida jabrlanganlarga tibbiy yordamni tashkil etish va boshqaruv tizimini rivojlantirish zaruriyatini ilmiy jihatdan asoslash, mavjud muammolarni tahlil qilish va ularning samarali yechimlarini taklif etish bugungi kunda juda muhim, chunki tez tibbiy yordamning sifatli va o‘z vaqtida ko‘rsatilishi ko‘plab insonlarning hayotini saqlab qolishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar tizim yetarlicha rivojlanmasa, ofatlar paytida qurbonlar soni ko‘payishi, asoratlarning og‘irligi ortishi va iqtisodiy zarar kuchayishi mumkin. Shuning uchun bu sohani takomillashtirish, muammolarni chuqur o‘rganish va ularning yechimlarini topish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Har qanday davlatning sog‘liqni saqlash tizimida tabiiy ofatlar vaqtida tibbiy yordam xizmati aholining hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tabiiy ofatlarda tibbiy yordam tizimi tibbiy xavfsizlikni ta’minlash, favqulodda holatlarda tezkor tibbiy yordam ko‘rsatish va epidemiologik tahdidlarga qarshi samarali kurashishda muhim o‘rin tutadi. Hozirgi kunda tibbiy xizmatlarning sifatini oshirish, ularning tezkorligi va samaradorligini ta’minlash nafaqat tibbiyot sohasi, balki davlatning ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. O‘zbekistonda tabiiy ofatlar vaqtida tibbiy yordam bazasi ya’ni tizimi Sovet Ittifoqi davrida shakllangan bo‘lib, o‘sha davrda asosan davlat tomonidan boshqarilgan markazlashgan tizim sifatida faoliyat yuritgan. 1991 yilda mamlakat mustaqillikka erishgach, sog‘liqni saqlash tizimida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirila boshladi [2]. 2017-2021 yillarda sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish bo‘yicha davlat dasturlari qabul qilinib, tabiiy ofatlar vaqtida tibbiy yordam xizmatini modernizatsiya qilish va aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda tabiiy ofatlar vaqtida tibbiy yordam xizmatining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg‘armasi (YUNISEF) va Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, har yili dunyo bo‘yicha millionlab insonlar tabiiy ofatlar paytida shoshilinch tibbiy yordamga muhtojlikni sezmoqda. O‘zbekistonda ham zilzila, sel va ko‘chki kabi tabiiy ofatlar tez-tez sodir bo‘lib, tibbiy yordamga bo‘lgan talab oshib bormoqda. Bunday holatlarda tibbiy yordamning tezkorligi inson hayotini saqlab qolishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, zilzila yoki sel oqibatida jarohatlanganlarda har bir daqiqa bemor hayoti uchun muhimdir. Shu bilan birga, tizimda bir qator muammolar mavjud:

1. Favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV) va tibbiy xizmatlar o‘rtasidagi koordinatsiya yetishmovchiligi.
2. Chekka hududlarda mobil tibbiy brigadalar va uskunalarning yetishmovchiligi.
3. Tibbiy xodimlarning ofatlar paytida tibbiy yordam bo‘yicha malakasini oshirish zarurati.
4. Zamonaviy tibbiy uskuna va raqamli boshqaruv vositalarining kamligi.
5. Transport logistika va infratuzilmaning talab darajasida emasligi [3].

O‘zbekiston Respublikasida tabiiy ofatlar vaqtida tibbiy yordam tizimini takomillashtirishga qaratilgan bir qator huquqiy hujjatlar mavjud. Xususan, “Favqulodda holatlar to‘g‘risida”gi qonun, “Sog‘liqni saqlash to‘g‘risida”gi qonun, shuningdek, 2023 yilda qabul qilingan “Iqlim o‘zgarishi va tabiiy ofatlar xavfiga nisbatan milliy harakatlar rejasi” ushbu sohadagi huquqiy asoslarni belgilab beradi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Tabiiy ofatlar vaqtida jabrlanganlarga tibbiy yordam metodlari – bu inson hayotiga xavf soluvchi holatlarda zudlik bilan yordam ko‘rsatadigan turlaridir. Bu yordamning asosiy maqsadi – inson hayotini saqlab qolish, oxirgi asoratlarni oldini olish va bemorni kasalxonaga yetkazguncha barqaror holatda ushlab turishdir. Tabiiy ofatlarda tibbiy yordamning asosiy metodlari “Nafas olishni tiklash, Qon ketishini to‘xtatish, Shok holatini bartaraf etish, Evakuatsiya” tashkil qilinadigan birlamchi yordamlaridir [1]. O‘zbekiston Respublikasida tabiiy ofatlar vaqtida tibbiy yordam tizimini rivojlantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, tez

tibbiy yordam xizmati sifatini oshirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, tibbiy xodimlarning malakasini oshirish va aholini tezkor tibbiy xizmat bilan ta’minlash borasida qator chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Shu bilan birga, tizimda hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar ham mavjud. Masalan, ayrim hududlarda mobil tibbiy brigadalar yetishmovchiligi, chaqiriqlarga kechikib javob qaytarilishi, malakali mutaxassislar tanqisligi va tibbiy xizmatlarni raqamlashtirish darajasining pastligi kabi masalalar mavjud.

Tadqiqotda huquqiy hujjatlar (lex.uz), xalqaro loyihalar (JSST, YUNISEF, PROON) tajribasi, simulyatsion mashg‘ulotlar va statistik ma’lumotlar tahlili qo‘llanildi. FVV va Sog‘liqni saqlash vazirligi o‘rtasidagi integratsiyani takomillashtirish, mobil tibbiy punktlar va telemeditsinani joriy etish yo‘llari o‘rganildi [5].

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Mavzuga oid maqolada O‘zbekistonda tabiiy ofatlar vaqtida jabrlanganlarga tibbiy yordam tizimining hozirgi holati, uni takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar hamda mavjud muammolar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, tizimning samaradorligi bir necha asosiy omillarga, jumladan, tashkiliy jihatlar, tibbiyot xodimlarining malakasi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasiga bog‘liq [6]. Bizning fikrimizcha, tabiiy ofatlar vaqtida tibbiy yordam tizimining samarali faoliyat yuritishi jamiyat uchun juda muhim. Chunki tez va sifatli tibbiy yordam ko‘rsatilishi ko‘plab insonlarning hayotini saqlab qolishga, asoratlar sonini kamaytirishga va umumiy sog‘liqni saqlash sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [7].

Shu bilan birga, tizimda hal qilinishi kerak bo‘lgan ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim hududlarda tibbiy xizmat yetarli darajada tashkil etilmagan, mutaxassislar tanqisligi seziladi va ba’zan favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordam chaqiriqlariga kechikishlar kuzatiladi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun tibbiy xizmatni takomillashtirish, xodimlar malakasini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish zarur [8]. Tizimda izchil islohotlar davom etsa, tabiiy ofatlar vaqtida tibbiy yordam xizmati yanada samarali va tezkor bo‘lishiga erishish mumkin [9].

1. Tabiiy ofatlar vaqtida tibbiy yordam tizimining tezkorligi va sifati samaradorligini baholash jarayonida quyidagi holatlar aniqlandi: shoshilinch chaqiriqlarga javob berish vaqti shaharlarda qoniqarli bo‘lsa-da, chekka hududlarda kechikishlar kuzatilmoqda. Masalan, 2023–2024 yillarda olib borilgan tahlillarga ko‘ra, ayrim hududlarda tibbiy yordam brigadalari jabrlanganlarga o‘rtacha 25–40 daqiqada yetib borgan, bu belgilangan normativlardan yuqori [10]. Mobil tibbiy brigadalar yetishmovchiligi va transport logistikasining zaifligi xizmat sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda [11].
2. Tabiiy ofatlar vaqtida tibbiy yordam tizimida kadrlar masalasi Tizimning samarali ishlashi uchun tibbiyot xodimlarining malakasi va yetarli soni muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, chekka hududlarda malakali mutaxassislar tanqisligi dolzarbligicha qolmoqda. 2023–2025 yillarda 5200 dan ortiq tibbiy xodim malaka oshirish kurslariga jalb qilingan bo‘lsa-da, ofat sharoitlarida amaliy tayyorgarlik darajasi hali yetarli emas [12].
3. Zamonaviy texnologiyalar va raqamlashtirish jarayoni Tabiiy ofatlar vaqtida tibbiy yordam tizimining samaradorligini oshirish maqsadida GIS tizimi, dronlar va telemiditsina texnologiyalari joriy etilgan. Biroq, bu texnologiyalarning to‘liq qamrovi va integratsiyasi hali yetarli emas [13].
4. Infratuzilma va transport logistika Tizim samaradorligiga infratuzilma va transport masalalari katta ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari yo‘l infratuzilmasi va transport tirbandliklari chekka hududlarda tibbiy yordam yetkazishni qiyinlashtirayotganini ko‘rsatdi [14].

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Tabiiy ofatlar vaqtida jabrlanganlarga tibbiy yordamni tashkil etish va boshqarish – inson hayotini saqlab qolishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan sohadir. Zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar bu sohani tubdan o‘zgartirishga xizmat qiladi [15]. Ilmiy tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Qo‘shimcha mobil tibbiy brigadalar sotib olish va ularni zamonaviy tibbiy uskunalari bilan ta’minlash.
2. Chekka hududlarda shoshilinch tibbiy yordam punktlarini tashkil etish va ularni zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash.
3. Tibbiyot xodimlarining ofatlar paytida malakasini oshirish dasturlarini kengaytirish va simulyatsion o‘quv kurslarini ko‘paytirish.
4. Tibbiy yordam xizmatini raqamlashtirish jarayonlarini kengaytirish va avtomatlashtirishni kuchaytirish (GIS, dronlar, telemiditsina).
5. Yo‘l infratuzilmasini yaxshilash va tibbiy yordam brigadalari uchun maxsus yo‘laklarni ajratish.
6. Aholiga tabiiy ofatlar vaqtida birinchi tibbiy yordam tizimidan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha axborot-ta’lim ishlarini kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Allayorov Y., Tojiboyev Y. Favqulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari. Darslik. T.: Ilm-ziyo, 2007.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 362-sonli Qarori (11.08.2023). Iqlim o‘zgarishi va tabiiy ofatlar xavfiga nisbatan milliy harakatlar rejasi.
3. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti. Tabiiy ofatlarda tibbiy yordam qo‘llanmalari. 2024.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Favqulodda holatlar to‘g‘risida”gi Qonuni.
5. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi (PROON). GIS asosidagi favqulodda vaziyatlarni boshqarish. 2025.
6. World Health Organization. Health Emergency and Disaster Risk Management Framework. Geneva, 2019.
7. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi. 2023–2024 yillarda tabiiy ofatlar statistikasi hisoboti. Toshkent, 2024.
8. Sendai Framework for Disaster Risk Reduction 2015–2030. United Nations, 2015.
9. Нигора Парманова, Севинчой Хайиталиева Фавкулодда вазиятларда тиббий ёрдамни такомиллаштириш муаммолари // Oriental Renaissance, 5(5) *May*, 2025 // *www.oriens.uz.*
10. International Federation of Red Cross and Red Crescent Societies. Disaster Response and Preparedness Guidelines. Geneva, 2023.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-283-sonli Qarori (16.06.2022). Aholiga tez tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
12. United Nations Office for Disaster Risk Reduction (UNDRR). Global Assessment Report on Disaster Risk Reduction. Geneva, 2022.
13. Asian Development Bank. Strengthening Health Systems for Emergency Response in Central Asia. Manila, 2024.
14. Parmanova N. Innovatsion texnologiyalar orqali favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordamni takomillashtirish // Ilmiy maqola, 2025.
15. Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan. National Strategy for Emergency Medical Care Development 2024–2030. Toshkent, 2024.
16. Nigora Parmanova Favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordam ko’rsatish tizimining shakllanishi // Ilmiy maqola, Profilaktik tibbiyot va salomatlik inScience Spesial Issue 5 № 1/S 02.2026. https://inscience.uz/index.php/preventive-medicine/article/view/8678